



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 3-4 (922–923)
8-fevral, seshanba
2022-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil
martdan chiga
boshlagan

BESH YILLIK “YO‘L XARITASI” BELGILANDI

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Tabiatning gultoji hisoblanuvchi insoniyat ko‘plab umumbashariy muammolarga duch kelmoqda va bu muammolarning yechimi yil sayin ni-hoyatda dolzarblik kasb etib bormoqda. Bunday muammolar qarshisida yo‘l topish uchun kuch va imkoniyatlarni birlashtirish, bu boradagi baracha sa‘y-harakatlarni uyg‘unlashtirish lozim. Demak, kelajagimiz qiyofasini belgilaydigan global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechim-choralarini o‘z vaqtida anglash, yechimini topish zarur.

“Hammamiz yaxshi tushumiz, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajodolarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy g‘oyalarni mujassam etadigan kuchli ma’naviyatga tayanamiz”, deydi yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

Darhaqiqat, keyingi vaqtarda dunyo maydonidagi jarayonlarni kuzatar ekanmiz, iqtisodiyot va ma’naviyat davlat boshqaruvi, siyosat islohotida tarozining teng pal-lasidek muvozanatda turishi shartligi tobora oydinlashib bormoqda. Yangi O‘zbekistonning jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro‘-e-ti-

borga ega bo‘lgan, har tomonlama obod va farovon, tinch va osoyish ta mamlakatga aylantirishni maqsad qilgan Prezidentimiz O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturini tasdiqladi.

Jamiyatning eng faol a‘zolari talabalardir. Shunday ekan, institutimiz talabalari bilan kelgusidagi besh yilning “Yo‘l xaritasi”da bizni nimalar kutayotgani haqida o‘rtoqlashsam.

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi prezident farmoni – “Yo‘l xaritasi” – ga ko‘ra, 2026-yilgacha fuqarolar ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta‘lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta‘minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi.

2022-yil – “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi asosida joriy yilning 1-aprelidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 1-4-sinf o‘quvchilari bepul ovqat (nonushta yoki tushlik) bilan ta‘minlanadi. 2022-yil 1-aprelgacha litsenziya va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarni olish sodda-lashtiriladi. Jumladan, muayyan faoliyat bilan ko‘chma tartibda, avtotransport orqali shug‘ullanish imkoniyati yaratiladi.

2023-yil 1-yanvardan pensiyani hisob-kitob qilishda ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash baza viy miqdorining 10 barobaridan 12

barobarigacha oshiriladi. Iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash doirasida 2022-yilda infliyatsiyani 9 foizgacha va 2023-yilda 5 foiz va fiskal taqchilikni 3 foizgacha pasaytirish choralar ko‘riladi. 2026-yil yakunigacha bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqariladi. 2026-yilgacha energiya samaradorligi 20 foizga os-hiriladi. 2025-yil 1-iyuldan tadbirkorlikka oid barcha majburiy talablar yagona elektron reestri ishga tushiriladi. 25 dan ortiq faoliyat turi bo‘yicha monopoliyalar (suyultirilgan gaz yet-kazib, neft mahsulotlarini saqlash va boshqalar) tugatiladi.

Taraqqiyot strategiyasida aholi salomatligi va genofondiga ziyyon yet kazadigan mavjud ekologik muam molarni bartaraf etish; ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliyligi loyihasini amalga oshirish; ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mex-anizmlarini shakllantirish; xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish; “Vatandoshlar” jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardi yurtoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o‘rnatish; pandemiyaga qarshi kurashish ishlaring samaradorligini oshirish kabi global ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlar belgilanmoqda.

Qisqacha qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi” yurtboshimizning saylovoldi dasturlarida bosh shior vazifasida yangragan – inson qadrini ulug‘lashga xizmat qiladi.

MEDITSINADA ZAMONAVIY YONDASHUV



Salomatlik hamma zamonlarda ham inson hayotining mazmuni bo‘lib kelgan. Meditsina fan, tex nikadagi kashfiyotlarni qabul qilar ekan, kasalliklarning yangi turlari bilan kurashishni ham o‘z o‘rnida yo‘lga qo‘yishi kerakligi kun tartibidagi masalaga aylanib bormoqda.

Ayniqsa, ertamiz egalari, millat davomchilari – yosh avlod salomatligi mavzusida sustkashlikka aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki baracha yosh qatlamlaridagi aholining salomatligi ahvoli nafaqat bugungi kunda, balki jamiyat va davlatning kelajakdagi farovonligining muhim ko‘rsatkichidir. Boshqa sohalar qatorida aholi salomatligi ham bugungi olib borilayotgan izchil islohot lardan chetda qolmayotgani millat kelajagiga daxldor har bir fuqaroni quvontiradi. Meditsina sohasi yu tuqlaridagi bir muhim qadamlardan yana biri – telemeditsina haqida so‘z yuritmoqchiman.

Telemeditsina – bu sog‘liqni saqlash xizmatlaridan masofadan foydalanish va sog‘lig‘ingizni bosh-qarish uchun kompyuterlar hamda mobil qurilmalar kabi raqamli ax borot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish demakdir. Bugungi sog‘liqni saqlash dunyosida vaqt omili, qulaylik asosiy hisoblanadi va bu telemeditsinaning afzalliklaridan biridir.

Telemeditsina bugungi sog‘liqni saqlash iste‘molchilarining ehti-

yojlarini qondirishga qaratilgan va sog‘liqni saqlash xizmatlarini taqdim etishda inqilob qilish qe biliyatiga ega. Insoniyat tarixidagi xavfli, ommaviy kasalliklardan biri deya ta’rif berilgan tojdor virus hayot tizginini biroz muvozanatdan chiqargani rost. COVID-19 pandemiyasining boshida vaziyat va sharoit taqozosi bilan iste‘molchilar va provayderlar sog‘liqni saqlash xizmatidan xavfsiz foydalanish va yetkazib berish yo‘llarini izlashlari sababli telesog‘liqni saqlashdan foydalanish ko‘paydi. 2020-yil aprel oyida ofisga tashrif buyurish va ambulatoriya yordami uchun umumiyligi telesalomatlidan foydalanish 2020-yil fevraliga nisbatan 78 baravar oshdi. Bu hozirgi zamon qulayliklariga bo‘lgan ehtiyojning oshganini anglatibgina qolmay, tibbiyotni raqamlashgan dunyoga kirib borayotganini ham ifodalaydi.

“Innovatie Developers” MCHJ hamda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti o‘rtasida imzolangan hamkorlik memorandumi doirasida ham aynan shu masala, ya’ni telemeditsina xizmatini tashkil qilish, masofadan tibbiy xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, tibbiyot markazlari nafaqat Toshkent shahrida, balki har bir viloyat markazlari, shuningdek, tuman markazlarida ham bo‘lishi hamda o‘sha yerda istiqomat qiluvchi aholi

ham o‘z yashash joyida malakali va sifatli tibbiy xizmatlardan foy dalanishi zarur. Samarqand viloyati Urgut shahrida tashkil etilayotgan Telemeditsina klinikasi buning yaq-qol misoli bo‘la oladi. Endilikda urgutliklar Toshkentga kelmasdan turib, Toshkent pediatriya tibbiyot institutining bir qator malakali mu-taxassislari, dotsent va professorlaridan muolaja hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti nafaqat yurtimizdagi, balki Markaziy Osiyodagi qadimiy va yetakchi ilm dargohi va tibbiyot muassasasi hisoblanadi. Ushbu tibbiyot muassasasi bilan hamkorlik o‘rnatalishi, Samarqand viloyatidagi bemor bolalar masofadan turib shifo topishiga, ularning kasalliklarini oldini olishga katta xizmat qiladi. Bu esa fuqarolarning vaqt va puli tejalishi, kasallikka ertaroq tashxis qo‘yilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Toshkent pediatriya tibbiyot institute talabalari tahlilida ham bu hamkorliklarning foydasi kattadir. Ilm tolibili endi o‘rganayotgan kasallikni ustozlari nazoratida bemor organizmidagi kuzatilayotgan o‘zgarishlar bilan solishtirib o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Nazariya va amaliyotning birga odimlashi shifokorlik kasbining muhim talablaridan biri.

Ushbu jarayon har ikki tomon uchun ham manfaatli bo‘libgina qolmay, balki insonlarning ortiqcha vaqt va mablag‘ini sarflanishini, ortiqcha ovoragarchilikning oldini olish ga xizmat qiladi. Shubha yo‘qliki, tibbiyot insonlar dardiga malham bo‘ladi, shifo izlaydi. En dilikda telemeditsinaning yo‘lga qo‘yilishi, bu sohaning har tomonlama insonning mushkulini oson qilishga intilishini yaqqol namoyon etib bermoqda.

**Muborak AHMEDOVA,
ToshPTI Yoshlar masalalari va
ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar
bo‘yicha prorektor,
katta o‘qtuvchi**

G'OLIBLAR NIMA DEYDI – INTERVYU

2022-yil 18-yanvar kuni qishki ta'til davrini qiziqarli va mazmunli tashkil etish maqsadida xalqaro va respublika fan olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rish doirasida Toshkent pediatriya tibbiyat instituti miqyosida masofaviy shaklda "Pediatriya" fani olimpiadasi tashkillashtirildi va 3 bosqichda institutning masofaviy ta'lim platformasi moodle.tashpmi.uz va ZOOM platformasida o'tkazildi.

Olimpiadada jami 26 nafar 4, 5, 6-bosqich talabalari qatnashishib, o'zlarining pediatriya sohasidagi bilimlarini sinovdan o'tkazishdi. Tanloving 1-bosqichida talabalar test topshiriglari orqali bilimlarini elakdan o'tkazdi va ular orasidan 13 ta yuqori ball to'plagan talabalar hay'at a'zolari xulosasiga ko'ra 2- va 3-bosqichga yo'llanma oldi.

Navbatda ishtirokchilarning nazariy bilim va mantiqiy savollar bo'yicha og'zaki javoblari eshitildi. Yakuniy xulosada esa talabalarning to'plagan ballarini jamlab, hay'at a'zolari g'oliblarni aniqlashdi. Natijalar quyidagicha bo'ldi: 1-o'rinn Bondarenko Anastasiya; 2-o'rinn Bekmurov Vasil; 3-o'rinn Uralova Maxliyolarga nasib qildi. Uch nafar g'olib ham 1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti, 5-bosqich talabalaridir.

"Pediatriya" fanidan o'tkazilgan olimpiadada ustunlikni qo'lga kiritgan, eng yuqori o'rirlarga da'vogarlik qilgan uch talabaga ushbu savollar bilan yuzlandik: g'oliblik sizga nimalar berdi, qanday mas'uliyatlar yukladi?

ПОСТОЯННАЯ РАБОТА НАД СОБОЙ

“Олимпиада проходила очень увлекательно, первым этапом шло тестирование, которое

было сложным вопросы были достаточно разносторонними. Затем вторым этапом шла ситуационная задача по педиатрии, на этот этап прошло только 15 человек. Третий этап был самым интересным, по моему мнению, и заключался в разгадывании медицинской загадки.

Перед олимпиадой я постаралась освежить пройденный материал по педиатрии, особенно некоторые трудные для запоминания моменты, но в целом можно сказать что моя подготовка началась ещё на первом курсе, так как не возможно выучить весь предмет за пару недель.

По моему мнению нет никаких секретов чтобы победить, только упорный труд и постоянная работа над собой.”

**1-o'rinn sohibasi
Anastasiya BONDARENKO.**

БЫЛО ОЧЕНЬ ЗАНИМАТЕЛЬНО

“Олимпиада прошла интересно. Было очень занимательно. До последнего дня сомневался участвовать или нет. Где-то 12 января

принял окончательное решение и сказал себе, что нужно участвовать и попробовать свои силы. По мне, организация прошла очень хорошо. Задания были достойны олимпиады. Были одновременно и интересные, и сложные вопросы. Были ситуационные задачи. Особенно понравились задания с ребусами. Я лично никогда такого не видел. Спасибо всем организаторам и Дильнозе Алишеровне отдельно спасибо большое за то, что она была и наставником для нас, и организатором олимпиады одновременно. Спасибо большое всей

кафедре педиатрии. Секрет пути к победе, я думаю, заключается только в знаниях, в определённой подготовке, ну и удача тоже даёт играет немаловажный фактор. Но всё-таки секрет больше таится в уверенности в себе, в вере в свои силы и учении.”

**2-o'rinn sohibi
Vasil BEKMUROV.**

G'ALABAGA ERISHISHNING BIRGINA YO'LI BOR...



“Bu men ga kutilmagan motivatsiya bo'ldi va o'zimning ustimda yanada ko'proq ishlashga bo'lgan intilishimni, qarorimni yanada mustahkamladi. Buning uchun ustozlarimdan minnatdorman. Bizning olimpiada onlayn bo'lsada haqqoniy va qiziqarli ravishda o'tdi. Fikrlash doiramizni oshiradigan, hayotimiz davomida asqotadigan vaziyatli masalalar va reburslar judayam yoddi. Institutimizda mana shunday muisobaqalar, olimpiadalar tez-tez bo'lishini istardim va yana ayット moqchi edimki, g'alabaga erishishning birgina yo'li bor, u ham b bo'lsa bilimdir.”

**3-o'rinn sohibasi
Mahliyo URALOVA.**



Suhbatimiz yakunida Usmonli turklar maktabidagi “Bu yerda hech qaysi qush suzishga, hech bir baliq uchishga majburlanmaydi”, – degan shiorning ma'nosini chuqurroq anglagandek bo'ldik. Zero, sidqidildan olingan ilm hayotimiz yo'llarini yoritib turadi gan quyoshimizdir. Biz mana shu nurga intilib yashaganimiz sari hayotimiz go'zallashadi, nurlarga inib boraveradi.

YAXSHILAR YODI MANGU BARHAYOT



O'zbekiston ilm-fani katta judolikka uchradi. Akademik Turg'unpo'lat Obidovich Daminov 81 yoshida vafot etdi.

Tug'unpo'lat Obidovich fe'li keng inson edilar. Shaxsan o'zim garchi tibbiyot xodimi bo'lmasam ham u kishini ustozim deb bilaman. Boisi 2016-19-yillar oralig'ida T.Daminov bilan «O'zbekiston tibbiyot» jurnalida birga faoliyat olib bordik. Shu uch yil davomida qanchadan qancha olimlarning ilmiy ma-qolalarini ustoz bilan nashrga tayyorladik, chop etdik.

Ustoz bilan ish jarayonida tez-tez muloqotda bo'lib turardim, tibbiyot atalmish eng nozik sohadagi murakkab terminlar ma'nolarini erinmay tushuntirar yoki ko'pin-

cha bu borada qaysi adabiyotga murojaat qilishim lozimligini aytardilar.

Domla odamiylik fazilatida tengsiz va nihoyatda madaniyatli inson edilar.

T.Daminov nafaqat katta sulo-la balki butun O'zbekiston tibbiyotining otasi edilar. O'ylaymanki, u kishining bosib o'tgan hayot yo'li, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati kelgusi avlodlarga namuna, o'rnak, maktab bo'ladi.

Oxiratingiz obod bo'lsin, Turg'unpo'lat Obidovich!

Alisher AZIMOV

XALQ VA ARMIYA – BIR TAN-U BIR JONDIR



1991-yilning 31-avgust kuni “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Ushbu muhim hujjat yosh respublikamizga o'zining harbiy siyosatini yuritish huquqini berdi. 1991-yil 6-sentyabrdagi “Mudofaa ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni sohaning ilk poydevori sanaladi. 1993-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan “14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni” deb belgilandi. Shu kundan boshlab 14-yanvar O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligi, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qiladigan kasb egalari – Vatan himoyachilari kuni va

O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlari tashkil topgan kun sifatida nishonlanadi. Ushbu bayramning nishonlanishi xalqimizning o'z milliy armiyasiga nisbatan cheksiz hurmatini, alp yigitlariga nisbatan iftixorini bildiradi.

Xuddi shu kuni Toshkent pediatriya tibbiyot institutida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himochilari kuni munosabati bilan “Xalq va armiya – bir tan-u bir jondir” shiori ostidagi tadbir tashkil etildi.

Tadbirda iste'fodagi tibbiy xizmat polkovniklari, institut faxriy lari, rahbariyat va Zoom elektron platformasi orqali tyutorlar, professor-o'qituvchilar va talabalar ishtirok etdi.

Tadbirni Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i A.K.Xudayberdiyev ochib berarkan, iste'fodagi tibbiy xizmat polkovniklarini bayram bilan tabrikaldi. So'ngra o'z nutqini davom ettirib, “Vatan himoyachilari kuni nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ayni vaqtida armiya saflarida o'z burchini o'tab qaytgan vatan

doshlarimiz va ertaga xizmatga boradigan ming-minglab navqiron yigitlarning bayrami hamdir” – deya vatan himoyasiga shay turgan talaba yigitlarni hamda institut xodimlarini ham bayram bilan qutlab o'tdi.

Vatan himoyachilari kungi bag'ishlangan tadbir yuqori kayfiyatda davom etarkan, unda iste'fodagi tibbiy xizmat polkovniklari, institutning mala kali xodimlari hamda talabalar o'zlarining Vatanga bo'lgan muhabbatlарini izhor etishdi. Vatan ostonadan boshlanashi, shunday ekan vatan himoyasini avvalo oiladan bash lamoq kerakligini tadbir ishtirok chilariga samimiy irod etib berishdi tibbiy xizmat polkovniklari.

Tadbir yakunida institutning Xodimlar kasaba uyushmasi raisi A.M.Mannonov so'zga chiqib, Vatan himoyachilari kunini alohida e'tirof etdi hamda iste'fodagi tibbiy xizmat polkovniklari va institut faxriylariga bayram munosabati bilan Toshkent pediatriya tibbiyot instituti jamoasi nomidan sovg'alar topshirdi.

Abdulaziz NOSIROV

TALABALAR TA'TILNI QANDAY O'TKAZMOQDA?

Barchamizga ma'lumki, 2021-yil 24-dekabrda davlatimiz rahbari tomonidan oliy ta'lim tizimini tub ijobjiy o'zgarishlarga olib keladigan oliy ta'lim muassasalariga mol'i yavyiy, akademik va tashkiliy-bosh-qaruvda mustaqillik berish borasi-dagi 2 ta tarixiy qaror imzolandi. Bu bilan esa O'zbekiston oliy ta'lim tizimida yangi davr boshlab berildi.

Qaror bilan 2022-yil yanvar oyidan boshlab respublikadagi eng salohiyatli 35 ta oliy ta'lim muas sasalariga moliyaviy mustaqillik berilishi – bu boradagi vazifalarni sifatli tarzda amalga oshirish va hozirdanoq mustahkam poydevor yaratishni talab etdi. Shu maqsadda, oliy ta'lim tizimi tarixida ilk ma rotaba – rektorlar, prorektorlar, dekanlar va moliya masalalariga mas'ullar uchun o'z kasbiy mahoratini oshirish, yangicha tartibda ishslashni boshlash maqsadida joriy yil 10-24-yanvar kunlari amaliy seminar-treninglar tashkil etildi.

Bu jarayonga oliy ta'lim muassasalarini huzuridagi barcha profesional ta'lim muassasalarini hamda akademik litseylar rahbarlari ham jalb etildi va shu maqsaddan kelib chiqib, 2021/2022-o'quv yilining ikkinchi yarmini to'liq va puxta tayyorgarlik ko'rgan holda boshlash maqsadida oliy va professional ta'lim muassasalari, akademik litsey talaba-o'quvchilari uchun qishki ta'til muddati 2022-yil 24-yanvarga qadar uzaytirildi. Biz mana shu uzaytirilgan qishki ta'tilni talaba lar qanday o'tkazayotgani bilan qiziqdik va ular bilan onlayn suhbat uyuştirdik.

Suhbatimizni tibbiy biologiya yo'nalishining 3-bosqich talabasi Abdusamatova Gulinur bilan boshladik va u bizga ta'tilda ham o'z bili - mini oshirayotgani haqida so'zlab berdi: "Men ta'tilda ham vaqtimni bekor ketkizmadim. O'qish jarayonidan bo'sh paytimda diagnostika sohasida klinikaga ustozlarimizning

yoniga amaliyotga borar edim. Uf tratorush tekshiruviga juda qiziqaman va shu sababli ta'tilda ham bu amaliyotimni davom ettirdim. Ingliz tili kurslariga ham qatnadim. Albatta, yaxshi mutaxassis bo'lish uchun birgina bilimning o'zi kamlik qiladi. O'z sohasida yuksalishni istagan inson intilishi va harakat qilishi ham kerak". Gulinurning shijoatidan quvonib yana bir talabaga sim qoqdik. Qodirov Iskandar ham 3-kurs talabasi. U ta'til davomida kitob mutolaasi bilan mashg'ul bo'lganni aytdi. "Uzaytirilgan ta'tilda "Renimatsion asoslar" nomli kitob o'qidim. Shoshilinch holatlarda bemorlarga qanday yordam berish, komadan qanday bosqichda chiqarishni o'rgandim", – deya Iskandar suhbatni qisqa qildi.

Suhbatimiz maroqli tuyulib, navbatdagi talabani bezovta qil dik. 3-kurs talabasi Mamatova Naziraxon ta'lim jarayonlarini tezroq boshlanishini intiqlik bilan kutayotganini aytib hozirda nimalar bilan mashg'ul ekanini quyidagicha bayon etdi: "Men Buxoro tibbiyot institutida o'tkazilgan xalqaro talabalar fan olimpiadasida BKP fanidan o'zimni sinab ko'rdirim va 2-o'rinni qo'lga kiritdim. Bundan judayam xursandman. Ayni vaqtida esa bo'sh vaqtimni qiziqarli va maroqli o'tkazish uchun badiiy kitoblar o'qish hamda ingliz tili kurslariga borish bilan o'tkazmoqdam".

"Men Ishonkulova Baxriniso 2-pediatriya yo'nalishi 3-kurs talabasiman. Ta'tilning har bir kunida o'zim uchun foydali mashg'ulotlar bilan band bo'ldim. Vaqtlarimni samarali qilish uchun oldindan reja tuzib oldim va asosan tibbiyotga doir kitoblar mutolaasiga sho'ng'idim. Ingiliz tilini o'rganish ham rejamdan chetda qolmadi, albatta. Bu dunyoda qancha sir-sinoat bo'lsa, barchasining ilmini o'rganib chiqaman degan niyatdaman", – deya samimiy



niyatlarini biz bilan o'rtoqlashdi Baxriniso. U bilan suhbatdan mammun bo'ldik va yana bir talabaning raqamini terdi. Abdurashidova Durdona institutning 3-kurs talabasi. U uzaytirilgan ta'til haqida biroz xafa bo'lib so'z boshladi. Ta'lim dargohidagi ustozlarini, ularning berayotgan ta'lmlarini sog'inayotganini aytarkan: "Uzaytirilgan ta'til da bilim olish darajamdan tushib ketaman degan qo'rquvdaman va shunday bo'lmasligi uchun olgan barcha bilimlarimni takrorlab, qayta o'rganib chiqmoqdam. Axir barcha bilimlarning onasi takrorlashdir, deyishadi. Muhimi, to'xtamaslik kerak. Ilm bizning oyog'imiz ostiga emas, boshimizdan nur qilib sochiladi. Shu ilmning ziyosi hayotimizni yoritib turadi" – deya ko'nglidagi ilmga bo'lgan muhabbatni ifodalab berdi.

Talabalarning ilm olishga bo'lgan shijoati bizni judayam quvontirdi. Garchand sanoqli talabalar bilan suhbatlashgan bo'lsakda, institutning boshqa barcha tolibi ilmlari ham shu maqsadda mushtarakligiga ishonch uyg'ondi ko'nglimizda. Zero, bu dargohga har bir insonni ilm yetaklab keladi.

**Shahnoza
ABDUHOSHIMOVA**

SOG'LOM KELAJAKKA QADAM



Sport shunday faoliyatki, u bilan har qanday yosha va hayotning istalgan nuqtasida shug'ullanish mumkin. Ko'pchilik sportni mak tablardagi qo'shma mashg'ulot yoki darsdan tashqari mashg'ulot deb biladi. Biroq, aslida, sport inson hayotida xuddi ta'lif kabi muhim rol o'yaydi. Hayotda har tomon lama rivojlanishga erishish uchun sport bilan shug'ullanish foydadan holi emas. Aqliy mashqlar ongini charxlasa, sport tanani charxlaydi va chiniqtiradi. Sport bilan shug'ulananishning ko'plab afzalliklari bor. Birinchi navbatda, barchaga ma'lum va juda aniq, musobaqalar shaxsning jismoniy tayyorgarligini oshiradi. Bundan tashqari, insonning barqaror ruhiy farovonligini shakllantirishga yordam beradi. Turli tadqiqotchilar shuni ta'kidlashadiki, har kuni sport bilan shug'ullanadigan odamlar jismoniy va ruhiy salomatlikka erishadi. Shuningdek, sport insonda bir qancha xususiyatlar va shaxsiy xarakterni shakllantiradi. U shaxsning munosabatida ishonch va ishtiyoq hissini uyg'otishi tabiiy hol. Muntazam sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanadigan odamlar o'zlarining shaxsiyati va xulq-atvorida yetakchilik, jamoada ishslash va mukammallikni namoyon etadilar.

Yurtimizda sportga bo'lgan e'tibor yuqori. Har bir ta'lif muassasida sport fan tarzida o'quv dasturliga kiritilgan. Xususan, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti ham

bundan mustasno emas. Bu ta'lif dargohida men bir necha yildan beri, talabalar bilan o'quv mashg'ulotlari ni olib bormoq barobarida sportning deyarli barcha turida musoboqalar tashkillashtirib kelmoqdamagan. Xususan, 2021-yilda institutda birinchi marotaba 1-noyabrdan 13-dekabrga qadar talabalardan tuzilgan 9 ta jamoalar ishtirokida "FUTZAL LIGA" musobaqalari o'tkazildi. 36 ta o'yindan iborat qarib 1,5 oy davom etgan musobaqaga 108 ta talaba doimiy jalb qilishga erishildi. Bunday musoboqalar yil davomida sportning turli yo'nalishlarida o'tkazib kelindi. Milliy kurash, Badminton, Vollybol, Basketbol, Tennis, Shahmat, Shashka, Sheyping shular jumlasidandir. Ayrim musoboqalarda yigitlar bilan birga qizlarning ishtiroki ham keng ko'lamni tashkil qildi va qizlar uchun badiiy gimnastika to'garagi ham tashkil etildi. O'tkazilgan musoboqalar yakunlari da ishtirokchilar institut tomonidan kubok, esdalik sovg'alari, diplom hamda medallar bilan rag'batlantirib borildi.

Toshkent pediatriya tibbiyot institutida "ToshPTI" sport klub 2018-yil 18-noyabrda tashkil etilgan. Hozirgi kunda Sport klubini ish faoliyati 30 foiz yo'lga qo'yilgan. Agar institut sport klubining 100 foiz ish faoliyatini yo'lga qo'ysak, Toshkent shahrida oliy ta'lif muassasalari o'rtaida hamda Universiadagi musoboqlarda talabalarning

ishtirokini ta'minlayman. Bunday musaboqalarda institutimiz mezbonlik qilishi ham mumkin.

Talabalarning darslardan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni doimiy sport bilan band qilish maqsadida, sport to'garaklari haftaning ish kunlarida doimiy 15:00 dan 18:00 ga qadar yo'lga qo'yilganini hisobga olib kelgusida talabalar ishtirokida turli jamoviylar turlari (*voleybol, basketbol, streetbol*) bo'yicha liga musobaqalari o'tkazishni yillik ish rejamizga kiritganmiz. Shuningdek, 2021-yil 18-maydagi PQ-5114-sonli «Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tad birlar to'g'risidagi» qarori ijrosini ta'minlash maqsadida jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan talabalar uchun zarur shart-sharoitlar yaratib, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ular ishtirokida musobaqalar tashkil etishni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-yanvardagi 65-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha har yil yakuni - dekabr oyida ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasiga ma'lumotlar topshirib borilishi so'ralgan "Alpomish va Barchinoy" maxsus testlarini institut professor-o'qituvchilari va talabalari orasida joriy etishni, bu testlarni jismoniy tarbiya darslarining asosiy qismlarida qo'llash orqali, talabalarning jismoniy faolligini oshirib borishni maqsad qilib qo'ydim.

Faoliyatim davomida angladimki, talabalarning sportga bo'lgan ishtiyoqi hamisha baland. Sog'gom kelajak uchun sport va bilim egallash ta'limlarini parallel olib ketish maqsadga muvofiqdir. Yangi 2022-yilgi ish rejamizni talabalarimiz orasidan O'zbekiston, Osiyo, jahon championlari yetishib chiqishiga moslaganmiz. Buning uchun esa institutimizda yetarli sharoitlar yaratilgan, talabalarning sportga bo'lgan ishtiyoqi doim a'lo darajada.

**Farrux VALIYEV,
ToshPTI jismoniy tarbiya
o'qtuvchisi**

ALISHER NAVOIY BUYUKLIGI

“Daho bobomiz Alisher Navoiyning go‘zal fazilatu xislatlarini so‘zlab va ta‘riflab berish qiyin. Biz nima uchundir Navoiy haqida uning tavallud sanalarida ko‘proq eslaymiz. Ammo Navoiy ibratini, uning asarlarini g‘oyasini, mazmun - mohiyatini har kuni eslashimiz kerak-ku”. Bugungi institutimiz talabalar turar joyidagi uchrashuvga borar ekanman, men shu haqda o‘yladim.

Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga afsuski, nofilologik yo‘nalishlardagi OTMlarda ko‘p soat ajratilmagan. Talabalarga Navoiy hazratlarining qay jihatlarini so‘zlashni, qay asarlarini tahlil qilishni o‘ylab qoladi kishi. Chunki agar ul zot asarlarini 300 olim talqin qilsa ham undan ham ko‘p olimlarga tadqiqot uchun imkoniyat qolar edi.

Alisher Navoiy shaxsi va ijodi ibrati esa bugungi kun uchun ni hoyatda dolzarb sanaladi. Mana, uning bunyodkorlik ishlari ro‘yxati.

Navoiy hokimlik va vazirlik davrida o‘z hisobidan bir necha madrasa, 40 ta rabot (safarda yo‘lovchilar to‘xtab o‘tish joyi), 17 masjid, 10 ta xanaqoh, 9 hammom, 9 ko‘prik, 20 ta hovuz, Dorushifoni qurdirgan, u yerdagи bemorlarni dori va ovqat bilan ta‘minlab, eng tajribali va mahoratli shifokorlarni o‘z shifoxonasida yiqqan.

Shuningdek, madrasalardagi, 133 o‘qituvchilaga oylik maosh, toliblariga esa nafaqa pullari to‘la gan. Masalan, madrasa o‘qituvchilariga yiliga 1200 oltin tanga va 24 qop don bo‘lsa, eng yaxshi o‘zlashtirgan



6 talabaga 24 oltin tanga va 5 qop don, 8 o‘rtta o‘zlashtirgan talabaga 16 oltin tanga va 4 qop don, qolgan larga 12 oltin tanga, 4 qop dondan bergen. Shuningdek, Navoiy har yili mingta nochor kishiga kiyim bosh olib bergen.

Navoiyning yuksak insoniylik jihatlari nafaqat uning saxovat va muruvvati, balki ustozlariga bo‘lgan hurmatini ham ta‘kidlab o‘tish mumkin. Navoiy Abdurahmon Jomiyning to‘la asarlar to‘plamini bir necha bor hattollardan ko‘chirtirib bergen va hamisha ustoziga e’zozda bo‘lganlar.

Alisher Navoiyning tilshunoslik, adabiyotshunoslik va boshqa sohalarga qo‘shgan hissasi ham beqiyos. Turkiy tilning bor go‘zalligini namoyon qilib, unda ijod qilgan. Ushbu tilda she‘riyat gul toji bo‘lmish, “Xamsa” yaratgan. “Muhokamatul lug‘atayn” asarida 100 ta turkiy so‘zga fors tilida bিror bir sinonim yo‘qligini va yana

ko‘plab boshqa misollar bilan turkiy til ustunligini isbotlagan.

Buyuk shoir o‘z asarlarida qahramonlari misolida go‘zal insoniy fazilatlarni ibrat qilib ko‘rsatar ekan, odamlarning shunday yuksak axloqqa ega bo‘lishini orzu qiladi. Uning ezgu maqsad bilan yaratilgan asarlari shuning uchun ham har bir davr uchun dolzarb. Ular har bir davr insonlarini yo‘ldan adashmaslikka, atrofdagilardan mehr - muhabbat ayamaslikaga chaqiradi. Nafaqat chaqiradi, o‘quvchi qalbiga ana shu mehr, to‘g‘rilik, adolat, poklik urug‘ini sepati. Aynan shuning uchun ham biz Navoiy asarlari ga takror va takror qaytishimiz kerak. Navoiy asarlari ko‘zguga o‘xshaydi-unga qaraganingda qalb nuqsonlariga ham yaqqol ko‘rinadi. TTJ o‘tkazilgan bugungi tadbirda shular haqida gapirar ekanman ular qalbi ga Navoiy merosining bir zarrasini bo‘lsa ham singdira olgan bo‘lsam xursand bo‘lar edim.



BOBUR VASİYATI

Boburmirzo qilar ogoh,
- Hayotimdir shunga guvoh:
Bir - biringiz o‘ylab yashang,
Va hamisha qo‘llab yashang!
Shunda atrof bo‘ston bo‘lar

Va nomingiz doston bo‘lar.
Hech kim ketmas uzoqlarga
Hech kim tushmas tuzoqlarga.
Tojmahallar uchun makon
Shunda bo‘lar O‘zbekiston.

Kaysar TURDIYEVA

UMMATGA KERAKSAN

(XII asrning buyuk olimalaridan Maryam bintu Abdulqodir "Sahih al- Buxoriy"ni qayta qo'l-yozma qilib tugatganidan so'ng, shunday xabar qoldirgan ekanlar: "Umid qilamanki, ushbu nusxada xato topgan inson meni kechiradi. Men o'ng qo'linda yozgan bo'lsam, chap qo'linda bolamni tinchlantirar edim").

Ba'zan aytishlarlar; "Ming o'qib shahar Olib berarmiding otangga, ey qiz..."
Bundaylar uchrasa senga ham agar,
O'zingni xor bilma, sanama ojiz.
Ular sura tursin shunday deb xayol,
Ummatga kerakdir ilmli ayol...

Boq, tarix, bugunning yoziqlariga,
Ne-ne buyuklarning ayolligi rost.
Ilm mashaqqati-yu, farzand kamolin
Eplagan onaga bormikan qiyos.
Aldamchi gap-so'zlar kelmasin malol,
Ummatga kerakdir ilmli ayol...

O'ng qo'lida yozib muxtasar asar,
Chapida bolasin ovutganlar bor.
"Kanga rozimasman", -deya har sahar;
Ko'pga intilganga Alloh bo'lar yor.
Yengil o'yilar seni eltmasini xiyol,
Ummatga kerakdir ilmli ayol...

Ayol yuksalgani - millat o'sgani,
Millat yetukligi yurt kamolidir:
Ayol jamiyatda bir pastlagani
Elning tanazzuli, xalq zavolidir.
Zimmangdagi burchga bo'lsang hamki lol,
Ummatga kerakdir ilmli ayol...

Biyuk erkak bormi, uning ortida
Bir oqila ayol turgan bo'ladi.
Uyg'on, dunyo muhtoj Mariyamlargi,
Agar sen uxlasang ummat o'ladi.
"Eplarmikanman", -deb berma hech savol,
Ummatga kerakdir ilmli ayol...

Hurriyat UMAROVA



YOSHLAR – VATAN TAYANCHI

Yurt ravnaqi, baxti uchun parvozlarsha shay-O'zbekiston yoshlariga sen bo'lding qanot.
El-yurt uchun kurashmoqqa chorlaydi timmay
Barchamizni birlashtirgan katta tashkilot.

Bunda barcha yoshlar bitta kuchda birlashib,
Kurashimiz, o'z fikrimiz, g'oyamiz katta.
Yuksaklarga intilamiz dovon, qir oshib
Yurtboshim va Vatan sha'nin oqlab albatta.

Imkoniyat izlasang gar imkonlar bisyor,
Iqtidoring, iste'doding baxsh et Vatanga.
Toki gullab yashnayversin betakror diyor,
"Xizmat qilish saodatdir – O'zbekistonga!"

Shu tuproqqa hayot baxsh et, asra, avayla,
Bobolardan meros qolgan Vatan bizniki.
Ozod elni obod etish kabi vazifa
Yurt tayanchi bo'lgan zukko o'g'il-qizniki.

Sen ham bizning safimizga qo'shil, tengdoshim,
Bugungi va ertangi kun uchun ham kurash.
Bizni qo'llab turibdilar aziz yurtboshim,
Demak, bizning farzimizdir Vatanga yarash!

KELDIMI BAHOR?

Nafosat fasliday asta ko'z ochib,
Mayin maysalarning shod uyg'onishi.
Anvoyi chechaklar mehrini sochib,
Quyosh yo'gdusida yal-yal yonishi...
-Sening tashrifingni kutdik intizor,
Dillarni munavvar aylagan bahor...

Qanchalar yoqimli, qanchalar dilbar -
O'ynoqi jilg'aning jo'shqin ovozi.
Tinchlik zamonda shodumon kezar,
Osmonni to'ldirgan qushlar parvozi.
-Olis cho 'qqlarda hamon oppoq qor,
Olamni uyg'otgil, yashnatgil bahor.

Yashil vodiylardan qirlarga yetdi
Ko'klam ko'klarining muattar bo'yi.
Nafosat faslini navqiron etdi
Yurtimning shargona yilboshi to'yi.
-Yashilga burkangan olam beg'ubor,
Nafis sabolarni boshlab kel, bahor.

O'zimni viqorli tog'larday sezib,
Saharda uyg'ongan yaprog'ing bo'lay.
Gullarga burkangan bog'larni kezib,
Sen bergen baxt ila hayotni kuylay.
-Baribir ko'rksamans kelsang ham takror,
Intiqib kutganim – baxtimsan, bahor!

Sen kabi uyg'ondi mening ko'nglim ham,
Ruhim har kungidan baxtiyor, quvnoq.
Sen bergen shodlikka to'lib, men bu dam,
She'r bitdim – tuyg'ular nurli va qaynoq.
-Sening tashrifingni kutdik intizor,
Dillarni munavvar aylagan bahor!

Muattar G'OFUROVA

E'lon: Toshkent pediatriya tibbiyot instituti tomonidan 2008-yil 25-iyun **Azizova Gavxar Maxmudxonova** nomiga berilgan 292405-raqamli diplom (*ro'yxat raqami 207*) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lon qiladi:

PROFESSORLAR: Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi.

DOTSENTLAR: Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi.

ASSISTENTLAR: Klinik farmakologiya; Tibbiy genetika; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Anatomiya; Biofizika, tibbiy informatika; Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi; Bolalar kasalliklari pro-pedevtikasi.

Tanlov muddati – e'lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog'ishamol ko'chasi 223, Tosh PTI.

Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 08.02.2022.

<p>SALOMLATIK – TUMAN BOYLIGI ESPORDE VARDIYA – BOGDATIQI STRAVI PEDIATR TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТИТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, Nashr uchun mas'ul: R. G'o'chchiyeva</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinnbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxtagta olingan. Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223 “XALQ NASHRIYOTI” XKda chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Qorasoroy ko'chasi, 316 uy. Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02. buyurtma adadi 110 nusxa, qog'oz bichimi A3. Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
--	--	--	---